

5-Mavzu: Do'st har vaqtda qo'llaydi

Darsning maqsadi:

- Asen Bosevning "Sanko" she'ri bilan tanishtirish;
- she'rni ifodali o'qish va qofiyadosh so'zlarni aniqlashni o'rgatish;
- o'rtoqlari bilan muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: darsga tayyorlanmagan bola, do'stlarning yordami.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *"Qofiyadoshini top"* mashqi.

Berilgan so'zga qofiyadosh so'z toping.

YULDUZ

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

Ertakning mazmunini so'zlab beriladi. "Chin do'stlik" mavzusida tuzgan matn o'qitiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *"Mendan so'ra"* mashqi.

Partadoshingizdan eng yaqin do'sti haqida ko'proq ma'lumot so'rang.

Muhokama uchun savollar.

1. Partadoshingizning eng yaqin do'sti kim?
2. U haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
3. Sizga qaysi ma'lumot qiziq bo'ldi?

Mavzuni tushuntirish.

Rasm asosida suhbat uyushtiriladi. O'quvchilarga quyidagi savollar berish tavsiya qilinadi.

1. Rasmda qanday holat tasvirlangan?
2. Siz nima deb o'ylaysiz, bolalar nima qilishyapti?

O'quvchilar fikri umumlashtiriladi va to'ldiriladi.

"Ibrat bola"ning gaplari o'qiladi va muhokama qilinadi.

Aziz o'quvchi, barcha bolalar bilan do'stlashishga intiling. Ular sizning

aqlingizga quvvat, qalbingizga quvonch beradi. Til o'rganasiz. Rus do'stingizdan rus, ingliz do'stingizdan ingliz tilini o'rgansangiz, o'z ona tilingizni do'stlaringizga o'rgatsangiz, bilingki, sizga jahonning eshiklari ochiladi.



Matn ustida ishlash. Muallif haqidagi qisqacha ma'lumotni beriladi.

Asen Ivanov Bosev - bolgar shoiri, jurnalist, tarjimon. Bolalar va o'smirlar uchun bir qancha kitoblar muallifi. Bolgariyada xizmat ko'rsatgan madaniyat arbobi.

Asen Bosevning "Sanko" she'ri o'qitiladi. She'r yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'r qahramoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. "Do'st har vaqt qo'llaydi,
To'g'ri yo'lga yo'llaydi!" deganda nimani tushundingiz?
3. She'rda qaysi so'zlar joy nomini bildiradi?
4. Sanko doskaga chiqqanda qanday voqea yuz berar ekan?
5. Uning bunday javob berishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?

She'r matnidagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

shipshimoq – pichirlamoq.

anglamoq – tushunmoq.

Maritsa daryosi – Bolgariyadagi daryo.

pistirma – poylash uchun yashirin joy.

"Ifodali o'qish" mashqi.

She'rni tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o'qish mashqi o'tkaziladi. O'qituvchi she'rni ifodali o'qishni boshlaydi. O'quvchilar yarim ovozda o'qib o'qituvchiga jo'r bo'ladi.

"Qofiyadoshini top" mashqi.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar og'zaki aniqlanadi: qo'llaydi-yo'llaydi, hazil-ahil, har dam-yordam,...

"Ma'nodoshini top" mashqi.

"Ahil" so'ziga yaqin ma'noli so'z topiladi: ahil-inoq

Mashq daftari bilan ishlash.

Daftardagi topshiriqlar mustaqil bajariladi.

Tez aytish musobaqasi o'tkaziladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- She'r nima haqida?

- Darsda yana nimalarni bilib oldingiz?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

She'rni yod oling. Siz o'zingizni qanday do'st deb hisoblaysiz? Xislatlaringizni yozing.

6-Mavzu: Bo'lim yuzasidan takrorlash

Darsning maqsadi:

- "Do'stlar qancha ko'p bo'lsa, olam nurga to'ladi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlash;
- do'stlikni qadrlashga o'rgatish;
- dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini oshirish.

Tayanch so'zlar: do'stlar dastasi, ahillik, tavsiya.

Didaktik materiallar: A4 formatdagi qog'oz, rangli qalamlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq. "Do'st" so'zi bilan birikma hosil qiling.

(Qanday?) do'st

II. O'tilganlarni takrorlash. (12 daqiqa)

"Sanko" she'ri yoddan so'raladi. Siz o'zingizni qanday do'st deb hisoblaysiz? Yozilgan xislatlar o'qib beriladi.

III. Darsning asosiy qismi. (26 daqiqa)

Amaliy mashg'ulot. Do'stlik haqida maqollardan namuna ayting.

Muhokama uchun savollar.

1. Nega siz aynan shu maqolni tanladingiz?
2. Do'stlik haqida yana qanday maqollar bilasiz?